QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ XOJELI RAYONÍ HÁKIMI SH E SH I M I

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI XO‘JAYLI TUMANI HOKIMI Q A R O R I

2024 - yil 2 - aprel 68-13-191-Q/24 Xo‘jayli tuman hokimligi

Xo‘jayli tuman hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularning tirkamalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish haqida

Xo‘jayli tuman hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularning tirkamalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish haqida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi 1993y., 9-son, 320-modda) 6-, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida” gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami 2013 y., 15-son 197-modda) 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-mart kungi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Nizomiga muvofiq transport vositalarining 2024-yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazishni tashkillashtirish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-mart kungi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom” ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Xo‘jayli tuman Ichki ishlar bo‘imining tuman hokimligiga yo‘llagan 2023-yil 13-dekabr kungi 11/8367-sonli xati ma’lumot uchun qabullansin.

3. Xo‘jayli tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularning tirkamalarini tegishli tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

Tumanda transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish quyidagi muddatlarga muvofiq belgilansin:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati uchun engil avtomobillar, avtobuslar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari) odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari - bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, ishlab chiqarish vaqti aniq bolmagan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - bir yilda bir marta;

g) tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi - shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

d) navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat‘i nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta

ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 2-bandi “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining ko‘rigi:

birinchi marta – 1 mart kunidan boshlab 30 iyun kunigacha;

ikkinchi marta – 1 sentyabr kunidan boshlab 31 oktyabr kunigacha o‘tkazilsin;

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi 31 dekabrgacha o‘tkazilsin.

5. Yangi transport vositalari DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazishda texnik ko‘rikdan o‘tkazilmaydi.

6. Tumanda texnik ko‘rikdan o‘tkazish uchun tuzilgan komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Tuman Ichki ishlar bo‘limi YHXX tomonidan yuridik shaxslarning transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish o‘rni, sanasi va vaqti, ko‘rikka qo‘yilayotgan transport vositalarining soni haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladigan 2-ilovaga muvofiq tuzilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-mart kungi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom”ini tasdiqlash haqidagi 125-sonli qarori 3-bandi talablaridan kelib chiqib, tuman Mudofaa ishlari bo‘limi, Ichki ishlar bo‘limi hamda Davlat xafsizlik xizmati harbiy bo‘linmalari transport vositalari majburiy texnik ko‘riklari o‘zlarining yuqori turuvchi organlarining qarori hamda ish rejasi asosida amalga oshirilishi nazarda tutilsin.

8. Tuman hokimining 2023-yil 5-aprel kungi “Xo‘jayli tuman hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularning tirkamalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish haqida”gi 82-13-191-Q/23–sonli qarori o‘z kuchini mazkur qaror e‘lon qilingan kundan yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu qaror hokimlik veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Qarorning ijrosini nazorat qilishni tuman hokimining o‘rinbosari (B.Djanabayev)ga yuklatilsin.

Tuman hokimi **J.Ermashev**

Xo‘jayli tuman hokimining
2024-yil 2-apreldagi
68-13-191-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiya
TARKIB

1	D.Klichev	Xo‘jayli tumani Ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi boshlig‘i, komissiya rahbari
2	U.Shaymanov	Xo‘jayli tumani Yo‘l xo‘jalik korxonasi boshlig‘i, komissiya a’zosi
3	T.Tadjimuratov	Xo‘jayli tumani Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, komissiya a’zosi
4	A.Reymov	Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo‘yicha Xo‘jayli tumani inspektsiyasi boshlig‘i, komissiya a’zosi
5	A.Xudaybergenov	Agroinspektsiyaning Xo‘jayli tumani bo‘limi boshlig‘i komissiya a’zosi
6	A.Kurbanbayev	Xo‘jayli tumani hokimligi mutaxassisi, komissiya kotibi

Eslatma: Ushbu komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda uning o‘rniga kelgan shaxs komissiya a’zosi bo‘lib hisoblanadi.

Xo‘jayli tuman hokimining
2024-yil 2-apreldagi
68-13-191-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Xo‘jayli tumani hududidagi tashkilot va korxonalarning transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish

JADVALI

№	Idora, korxona, tashkilot nomlari	Texnik ko‘rikdan o‘tkazish vaqti	O‘tkazilgan hisobini topshirish vaqti	Texnik ko‘rikdan o‘tkazish joyi
1	Tuman hokimligi	10.01.2024 y.	31.03.2024 y.	Tuman IIB YXHB xodimlari tomonidan idora va tashkilotlarning o‘z garajlarida
2	Xo‘jayli davlat O‘rmon xo‘jaligi	14.01.2024 y.	23.03.2024 y.	
3	Xo‘jayli tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	16.01.2024 y.	24.03.2024 y.	
4	“Qaraqalpaq agro ximiya qorg‘aw” XAJ Xo‘jayli filiali	16.01.2024 y.	25.03.2024 y.	
5	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	17.01.2024 y.	28.03.2024 y.	
6	Tuman ko‘zi ojizlar jamiyati	17.01.2024 y.	28.03.2024 y.	
7	“Qoraqalpoqsuv ta’minoti” MChJ Xo‘jayli filiali	18.01.2024 y.	28.03.2024 y.	
8	Xo‘jayli Transport kasb hunar maktabi	19.01.2024 y.	28.03.2024 y.	
9	Xo‘jayli Ko‘p tarmoqli texnikumi	20.01.2024 y.	29.03.2024 y.	
10	Xo‘jayli Pedagogika kolledji	20.01.2024 y.	29.03.2024 y.	
11	Xo‘jayli Abu ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi	23.01.2024 y.	29.03.2024 y.	
12	Xo‘jayli temir yo‘l kasalxonasi	23.01.2024 y.	30.03.2024 y.	Tuman IIB YXHB Xodimlari tomonidan idora va tashkilotlarning o‘z garajlarida
13	“Xojeli go‘sh” MChJ	23.01.2024 y.	30.03.2024 y.	
14	Tuman SEAM	23.01.2024 y.	30.03.2024 y.	
15	Tuman Tibbiyot birlashmasi	23.01.2024 y.	30.03.2024 y.	
16	“Dárbent” AJ	24.01.2024 y.	30.03.2024 y.	
17	“Vatanparvar” tashkiloti	24.01.2024 y.	30.03.2024 y.	
18	“Xo‘jayli paxta tozalash” AJ	25.01.2024 y.	30.03.2024 y.	
19	Tuman davlat soliq inspektsiyasi	26.01.2024 y.	30.03.2024 y.	
20	Kema sozlash zavodi	27.01.2024 y.	30.03.2024 y.	
21	Suv yo‘llari texnik bo‘limi	27.01.2024 y.	30.03.2024 y.	
22	Xo‘jayli pochta bo‘limi	28.01.2024 y.	30.03.2024 y.	
23	Respublika 3–sonli Internati	28.01.2024 y.	31.03.2024 y.	
24	Respublika 6–sonli Internati	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
25	Xo‘jayli tumani Agrobank filiali	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
26	Xo‘jayli tumani Mikrokredit ATB filiali	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
27	Xo‘jayli tumani Xalq bank filiali	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
28	Xo‘jayli tuman Elektr tarmoqlari bo‘limi	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
29	“Xo‘jaylitumangaz” GTF filiali	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
30	Xo‘jayli tumani Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
31	“Toza hudud” DUK tuman bo‘limi	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
32	Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
33	28 “Xojeli gerbish zavodi” MChJ	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
34	29 Xo‘jayli Yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
35	Tuman Telekommunikatsiya tarmog‘i bo‘limi	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
36	Tuman Madaniyat bo‘limi	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
37	“Aviator” MChJ	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	

38	“Jetpisbay trans” MChJ	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	Tuman IIB YXHB Xodimlari tomonidan idora va tashkilotlarning o‘z garajlarida
39	“Aximjan trans” MChJ	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
40	“Mazda trans” MChJ	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
41	“Nazi trans” MChJ	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
42	“Taksi Taym” MChJ	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
43	“Gulshirin trans” MChJ	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
44	40 “Kolya trans” MChJ	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
45	“Koaster” MChJ	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
46	“Avtoring” MChJ	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
47	“Xoja balta trans” MChJ	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
48	“Xojeli motors” MChJ	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
49	“Sharif shax” MChJ	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
50	“Lazzatbek trans” MChJ	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
51	“Kross invest” MChJ	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	
52	Xo‘jayli suv qurilish MChJ	01.02.2024 y.	15.04.2024 y.	